

SUD – HUQUQ TIZIMIDA ERISHILGAN YUTUQLAR VA DOLZARB MASALALAR

Sitora Ibrohimova Ilhomjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati bo'linish prinsipining asosiy tizimlaridan biri bo'lgan – sud hokimiyati sohasidagi muammolar, hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar hamda ularning yechimi yuzasidan fikr va mulohazalar bayon etiladi.*

Kalit soʻzlar : *sud, sud tizimi, “Miranda qoidasi” , “Habeas corpus”, bir sud- bir instansiya, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, yangi tahrirdagi Konstitutsiya, dolzarb masalalar, tergov sifati pastligi, taraqqiyot strategiyasi.*

KIRISH

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan mamlakatimiz Konstitutsiyasi mustaqillikning o'tgan tarixiy davrida amalga oshirilgan demokratik, liberal va insonparvar islohotlarning hamda ularning qonunchilik asoslarini yaratishning mayog'i va bosh huquqiy asosi, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishning kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Demokratik huquqiy davlatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan sud-huquq tizimini chuqur isloh etish va inson huquqlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, uning qonunchilik asoslari ham Konstitutsiyamiz tamoyillari va qoidalari asosida tubdan qayta qurib chiqilib, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsipi, insonparvarlik g'oyalariga tayangan holda ishlab chiqildi. Shu o'rinda asosiy masala – *sud-huquq tizimining dolzarb masalalariga* o'tishdan avval, mamlakatimizda amalga oshirilgan va bugun yanada jadal davom etayotgan puxta o'ylangan, rejali va odilona huquqiy siyosat natijasida Konstitutsiyada belgilangan sud-huquq tizimiga, inson huquq va erkinliklariga oid normalarning alohida qonun hujjatlarida mustahkamlash orqali rivojlanayotganligi hamda amaliyotda samarali qo'llanilayotganligi xususida qisqacha to'xtalib o'tsak.

Konstitutsiyamizning 106-moddasida keltirilishicha, sud alohida hokimiyat, sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. Shuningdek, Sudlar to'g'risidagi qonunning 4-moddasida sudyalarning mustaqildirlar, ular faqat qonunga bo'ysunadilar, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishiga yo'l qo'yilmaydi deb qayd etilgan. Ushbu normalar asosida sud-huquq tizimini isloh qilish demokratik islohotlarni amalga oshirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash, inson huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish, huquqiy tizimni izchil demokratlashtirish va qonunchilikni liberallashtirishni ko'zda tutadi. Shu maqsadda, Prezident Shavkat Mirziyoyev turli

darajadagi anjumanlarda sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash eng ustuvor vazifa ekanligini takror va takror eslatib keldi va 2020-yil 24-iyul kuni qabul qiliningan "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida" gi PF-6034 Farmoni ayni tizimli muammolar va to`planib qolgan dolzarb masalalarning ma`lum bir qismiga yechim ko`rsatib berdi. Farmon asosida 2021-yil 1-yanvardan O`zbekiston Oliy sudi negizida tashkiliy tuzilmaviy o`zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, viloyat va unga tenglashtirilgan fuqarolik ishlari bo'yicha, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar va iqtisodiy sudlar negizida sudyalarning qat'iy ixtisoslashuvini saqlab qolgan va sud ishlarini yuritish turlari bo'yicha alohida sudlov hay'atlarini tashkil etgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar umumiyurisdiksiya sudlarini tashkil etildi.

E'tiborlisi, Farmon bilan ortiqcha sud bosqichlarini bekor qilish orqali "bir sud – bir instansiya" tamoyili joriy etildi. «Bir sud – bir instansiya» tamoyil bo'yicha birinchi instansiya sudi qarori ustidan apellyatsiya shikoyati berish, apellyatsiya instansiyasi qarori ustidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi kassatsiya instansiyasiga murojaat qilish tartibining joriy etilgani inson huquqlarining samarali himoya qilinishi, viloyat sudi tomonidan birinchi instansiyada ko`rilgan sud ishlari yuzasidan berilgan shikoyatlarni shu sudning o'zi tomonidan yuqori instansiya sudi sifatida ko`rilishi amaliyotiga barham berilgani, natijada mazkur jarayondagi korrupsiyaviy omillar bartaraf etilib, shikoyat qilish institutining samaradorligi oshishi, o`rta bo`g`indagi sudlar asosan apellyatsiya instansiyasi sudi sifatida ixtisoslashgach, ularning mas'uliyati kuchaytirilib, barcha e'tibor sud qarorlarining sifatiga qaratilishi hamda birinchi instansiya sudlari tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf qilinishi, bunda fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini o'z vaqtida tiklash va odil sudlovni amalga oshirish sifatini yanada yaxshilashiga imkoniyati yaratgani, birinchi instansiya sudida ko`rilgan ishni bir-ikki oy ichida apellyatsiya tartibida, uch-to`rt oy ichida ish Oliy sudga ko`rilishiga erishish imkonini bergani, o'z navbatida, sudma-sud sarson bo'lishning oldini olishi hamda qisqa muddatlarda jabrlanuvchi, da'vogar va ishdagi boshqa taraflarning buzilgan huquqlarini tiklash imkonini berishi ushbu tamoyilning afzalliklaridir⁷¹.

Maqolaning ikkinchi qismi – sud-huquq tizimidagi ko`zga ko`ringan dolzarb masalalar va kamchiliklar haqida so`z yuritar ekanmiz, avvalo ularni aniqlashitirib olishimiz kerak. Mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, shuningdek, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash islohotlarning bosh mezoni hisoblanadi. Respublikamizda bu borada jadal ishlar olib borilmoqda. Ammo ayrim yo`nalishlarga yana-da ko`proq e'tibor qaratish lozim. 2022-yilning 20-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan **Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga navbatdagi**

⁷¹ Sudlar faoliyatida "bir sud – bir instansiya" tamoyili joriy etiladi - Xalq so'zi (xs.uz)

Murojaatnoma yo'llanib, unda sud-huquq sohasidagi islohotlarni davom ettirilishi zaruriyatiga alohida e'tibor qaratilgani diqqatga sazovardir. O'z chiqishida davlatimiz rahbari "...So'nggi yillarda sud-huquq tizimida adolat o'rnatish bo'yicha ko'p ish qildik. Shu bilan birga, odil sudlovni ta'minlash bo'yicha hali qo'limiz yetib bormagan masalalar bor..."⁷².

Afsuski, hozir ham **tergov sifati pastligi, sudlarda odamlarning ovoragarchiligi, sud qarorlari ijro etilmay qolayotgani** bilan bog'liq salbiy holatlar uchramoqda. Bundan tashqari sud-huquq tizimidagi nuqsonli jihatlar sifatida korrupsiya – barcha sohalardagi illat, insonlarning tashvishlariga befarqlik, adolat qonunlarini buzuvchi qarorlarning uchrab turishi, ishlarni o'z vaqtida ko'rib chiqmaslikka yo'l qo'yilishini ajratib ko'rsatish mumkin.

Fikrimni davom ettirgan holda, muammoli holatlar yechimi sifatida xalqaro sud-huquq tizimida asosiy o'rin egallagan "Miranda qoidasi" hamda "Heabes corpus" usullarining joriy etilganini ijobiy hodisa sifatida e'tirof etish mumkin. Bu ikki sud-huquq tizimidagi usullar allaqachon qonunchilikka tatbiq etilgan edi. Ammo davlatimiz rahbari tomonidan bu usullarni yanada keng qo'llash va kengaytirish to'g'risidagi fikr ilgari surildi hamda natijasi o'laroq O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ham "Miranda qoidasi" hamda "Heabes corpus" tamoyillari mustahkamlab qo'yildi.

Miranda qoidasi (*ingl. Miranda warning*) — *ushlash jarayonida ushlanuvchi o'zining huquqlari haqida ogohlantirilishi, uni ushlayotgan huquqni muhofaza qilish xodimi esa u aytilayotganlarni tushunayotganligi haqidagi savolga ijobiy javobni olishi kerakligi haqidagi AQShdagi yuridik talab. Huquqlarning qaysi so'zlar bilan tushuntirilishi huquqni muhofaza qilish organlari vakolatli xodimlari o'z ixtiyorida bo'ladi. Eng ommalashgan formulirovka quyidagicha hisoblanadi:*

"Siz sukut saqlash huquqiga egasiz. Siz aytgan har qanday narsa sudga qarshi ishlatilishi mumkin. So'roq jarayonida sizning advokatingiz ishtirok etishi mumkin. Agar siz advokat xizmati uchun pul to'lay olmasangiz, u sizga davlat tomonidan taqdim etiladi. Siz o'z huquqlaringizni tushundingizmi?"

"Habeas korpus" (*lot. habeas corpus*) — *shaxs daxlsizligi tamoyili bilan chambarchas bog'liq ingliz jinoiy-protsessual huquqiy instituti; u shuningdek anglosakson huquq oilasidagi boshqa davlatlar huquqiy tizimiga ham kiradi*⁷³.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 2- bosqichi ham aynan mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirdi va hozirda ushbu tamoyilni amalga oshirish bo'yicha tegishli davlat organlari, mansabdor shaxslar tomonidan qator chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda.

⁷² [Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish – huquqiy demokratik jamiyat poydevori - Xalq so'zi \(xs.uz\)](#)

⁷³ <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/20/suspect/>

Xulosa qilib aytganda, sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar : bir sud - bir instansiya , “Miranda qonuni”, “Heabes corpus” usullari hamda davlatimiz rahbari va Oliy Majlis palatalari tomonidan ilgari surilayotgan qaror va farmonlar natijasida O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimi yangi qiyofada qaytadan shakllandi. Fuqarolarning sud jarayonlariga bo‘lgan ishonchi ortdi. Shunga qaramay milliy sud tizimimizda o‘z yechimini to‘liq topmagan bir nechta dolzarb masalalar bor. Ushbu muammolar asta sekinlik bilan tegishli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan o‘rganilib, bartaraf etilmoqda. Zotan, mamlakatda adolatli sudlovni amalga oshirish avvalo inson qadrini, uning sha‘ni va manfaatlarini himoya qilish yo‘lida xalq ishonchiga sazovor bo‘la olishi lozim.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun.
3. “Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Prezident farmoni.
4. Sudlar faoliyatida “bir sud – bir instansiya” tamoyili joriy etiladi - Xalq so'zi (xs.uz)
5. Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish - huquqiy demokratik jamiyat poydevori - Xalq so'zi (xs.uz)
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/20/suspect//>